

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022. I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

USMANOVA NASIBA AKBARJONOVNA

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI
BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Usmanova Nasiba Akbarjonovna

Xizmat ko'rsatish sohasida sifat va samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish..... 3

Усманова Насиба Акбаржоновна

Совершенствование методики оценки качества и эффективности в сфере услуг..... 26

Usmanova Nasiba Akbarjonovna

Improving the methodology for assessing quality and efficiency in the service sector..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

USMANOVA NASIBA AKBARJONOVNA

**XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI
BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida V2021.1.PhD/Iqt257raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida(www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Qulmamat Djanzakovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxammedov Murod Muxammedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliyeva Maxbuba Toychiyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis institutihuzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «_____» _____ dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandiqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., dosent

M.M.Muxammedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanib borishi bir tomondan uning aholi turmush sifati darajasini oshirishdagi o'rnini, ikkinchi tomondan esa yalpi ichki mahsulot hajmini qo'shimcha qiymat negizida oshirib borish xususiyatiga ko'ra sohaning global rivojlanish tendentsiyasi kuzatilmoqda. "Jahonda xizmatlar savdosining hajmi keyingi yigirma yil ichida besh baravarga oshdi. Rivojlangan davlatlarda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi $\frac{3}{4}$ qismni tashkil etib, ish bilan bandlar ulushining 75,0 foizi va kapital qo'yilmalar hamda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining $\frac{2}{3}$ qismi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Bugungi kunda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini sohaga innovatsion usullar va boshqaruv tizimini ishlab chiqarishni samarali tashkil qilish, sifat tizimini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, xizmatlar raqobatbardoshligiga ko'ra eksport hajmini oshirish kabi muammolarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirishni servis korxonalarini faoliyati sifat-samaradorligini oshirish negizida ta'minlash, sifatni boshqarish tizimini mehmonxona xo'jaliklari faoliyati mavsumiyligi, sifatni oshirishning innovatsion usullarini joriy etishga ko'ra takomillashtirish, xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligini, jumladan xodimlar kompetentligini oshirish negizida oshirish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasini zamonaviy talablar asosida sifat jihatdan rivojlantirish, ishlab chiqarishni optimal tashkil qilishga ko'ra servis xo'jaliklari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda sohaning munosib o'rnini ta'minlash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish"² masalasi strategik vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish sohasida xizmat turlarini standart talablarga muvofiqligi darajasini tabaqalashtirish, servis korxonasida innovatsion faoliyatning integral samarasini omilli baholash, xizmatlar sifatini boshqarish tizimini jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkiblarini aniqlashtirishning uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021 yil 30 sentyabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 16

¹ <http://stats.oecd.org/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmonining 1-ilovasi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" //Lex.uz

iyundagi PQ-4752-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 apreldagi 246-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Servis iqtisodiyotining shakllanishi, xizmatlar sifati, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, raqobat shakllanishining ilmiy-metodologik jihatlarini xorijlik olimlar³, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlarini xorijlik olimlar⁴, jumladan: J.A.Romanov, O.P.Yefimova, G.A.Avanosova, T.D.Burmenko, V.K.Romanovich, S.N.Korobkova, V.I.Kravchenko va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Vatanimiz olimlaridan mazkur muammolarni o‘rganishga⁵ Pardayev M.Q., Po‘latov M.E., M.M.Muxammedov, D.R.Zaynalov, Q.J.Mirzayev, B.Sh.Safarov, B.A.Adukarimov, D.X.Aslanova, J.I.Isroilov, M.T. Alieva va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarida xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida sifat va samaradorlikni baholash uslubiyati, xizmat ko‘rsatish

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. – 808 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.

⁴ Романов Ж.А. Сервисная деятельность М: Дашкови К. 2006. – С.399; Ефимова О.П. Экономика общественного питания. Минск. Новое знание. 2008; Аваносова Г.А Сервисная деятельность: историческая и современная практика, предпринимательство менеджмент (учеб – пасатия). М – Аспект – Пресс. 2005. – 63 с.; Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661; Романович В.К. Сервисная деятельность: учеб. пос.: под общ. ред В.К.Романович. / С.Н.Коробкова, В.И.Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 156 с.

⁵ Пардаев М.К., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарканд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарканд.1998.с.282; Тухлиев И.С., Хайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б.; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарканд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Адукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик, II қисм Т.: «Фан ва технология». 2008.; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук- Киев. 1992 – С. 20. Алиева М.Т. Совершенствование менеджмента туристической индустрии в Узбекистане. 2019 г.

sohasida sifatni boshqarishning zamonaviy modellari hamda xizmatlar sifatini oshirishning innovatsion usullari va raqobatbardoshlik omillari yetarlicha o'rganilmagan. Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida sifat va samaradorlikni baholashning zamonaviy usullarini joriy bilan bog'liq tadqiqotlarning yetarli darajada emasligi, ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"xizmatlar", "xizmatlar sifati" va "samaradorlik" kategoriyalarining mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish asosida muallif yondashuvini shakllantirish;

xizmat ko'rsatish sohasida sifat va samaradorlikni baholash usullarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish sohasida sifatni boshqarishning zamonaviy modellarini tadqiq etish;

O'zbekiston Respublikasi xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalari va omillarini tahlil etish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish yo'llarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlari va korxonalarini faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni baholash usullarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, taqqoslash, indeks, guruhlash, grafik, loyihaviy-hisob, regression-korrelyatsion tahlil, ekspert baholash va imitatsion modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat turlarini standart talablarga muvofiqligi darajasiga ko'ra past ($SI=0-0,3$), o'rta ($SI=0,4-0,6$) va yuqori ($SI=0,7-1,0$) darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda har bir guruh bo'yicha qo'shimcha talablarga muvofiqligini baholashga ko'ra takomillashtirilgan yondashuv asoslangan;

servis korxonasida innovatsion faoliyatning integral samarasini xizmatlar realizatsiyasidan tushum, innovatsiyalardan olingan daromad hamda innovatsiyani o'zlashtirishga xarajatlar ta'sirini omilli baholash ko'rsatkichi ($R/T = R_1/T_1 \times R/T_1 \times T_1/T$) orqali ifodalash taklifi asoslangan;

xizmatlar xavfsizligi darajasini belgilangan standartlarga muvofiqligiga ko'ra ta'minlash, iste'molchilar uchun riskni identifikatsiyalash asosida pasaytirish negizida xizmatlar sifatini boshqarish tizimida iqtisodiy samaraga erishishning blok-sxema modeli takomillashtirilgan;

korxonada sifatni boshqarish tizimi natijadorligini baholash yondashuvi xizmatlar bozorida iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar sifatini raqobatbardoshlikka ekspert xulosasiga ko'ra bog'liqligini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining muhim mezonini hisoblangan «xizmatlar», «xizmatlar sifati» va «samaradorlik» kategoriyalarining mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

korxonada rahbariyati mas'uliyatini oshirish, resurslarni boshqarish, sifat menejmenti tizimini davriy ravishda tahlil qilib borish hamda rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishning jarayonli yondashuviga asoslangan sifat menejmentining takomillashtirilgan tizimi modeli ishlab chiqilgan;

xizmatlar ro'yxati va sifati ko'rsatkichlarini aniqlash, xizmatlar sifati to'g'risida axborotlarni to'plash, uning ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda korxonada xizmatlar sifati bo'yicha innovatsiyalarni boshqarish tizimini takomillashtirish asosida xizmatlar sifatini auditorlik tekshiruvining takomillashtirilgan modeli taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari, mehmonxona xo'jaliklari hisobotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish korxonalarini sifat va samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish, mehmonxona xo'jaliklari faoliyatida mavsumiylikni baholash, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarida ilmiy apparatni boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati asoslab berilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarni, xizmat ko'rsatish va mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirishga bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish (takomillashtirish)da foydalanish mumkinligi hamda o'quv adabiyotlari, jumladan "Korxonani boshqarish", "Sifat menejmenti", "Sifatni boshqarishni tashkil etish", "Turizm va mehmonxona xo'jaligi menejmenti", "Mehmonxona xo'jaligida xizmatlar sifati boshqarish", "Mehmonxona marketingi" kabi fanlar bo'yicha

o'quv adabiyotlarini takomillashtirish (ishlab chiqarish)da foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat turlarini standart talablarga muvofiqligi darajasiga ko'ra past ($SI=0-0,3$), o'rta ($SI=0,4-0,6$) va yuqori ($SI=0,7-1,0$) darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda har bir guruh bo'yicha qo'shimcha talablarga muvofiqligini baholashga ko'ra takomillashtirilgan yondashuv Turizmni rivojlantirish instituti tomonidan turistik obyektlarida turistik xizmatlar sifatini baholash uslubini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021 yil 27 avgustdagi 03-17-02/5726-son ma'lumotnomasi). Taklifdan foydalanish servis korxonalarida xizmatlar sifatini tavsiflanayotgan xususiyatlarining tarkibi va tuzilishi bo'yicha baholash ko'lamini 1,5 martaga oshirish imkonini berib, unga ko'ra olingan natijalarning aniqlik darajasini oshirishga xizmat qilgan;

servis korxonasida innovatsion faoliyatning integral samarasini xizmatlar realizatsiyasidan tushum, innovatsiyalardan olingan daromad hamda innovatsiyani o'zlashtirishga xarajatlar ta'sirini omilli baholash ko'rsatkichi ($R/T = R_1/T_1 \times R/T_1 \times T_1/T$) orqali ifodalash taklifi Turizmni rivojlantirish instituti tomonidan turizm tizimini rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga muvofiq keluvchi innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021 yil 27 avgustdagi 03-17-02/5726-son ma'lumotnomasi). Taklifdan foydalanish xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanilayotgan ko'rsatkichlarni tizimlashtirish asosida innovatsiyalarni o'zlashtirishga qilingan xarajatlar miqdorini aniqlash imkonini bergan;

xizmatlar xavfsizligi darajasini belgilangan standartlarga muvofiqligiga ko'ra ta'minlash, iste'molchilar uchun riskni identifikatsiyalash asosida pasaytirish negizida xizmatlar sifatini boshqarish tizimida iqtisodiy samaraga erishishning takomillashtirilgan blok-sxemasidan Turizmni rivojlantirish instituti tomonidan turistik industriya obyektlarida xavfsiz turistik xizmatlar ko'rsatish ga doir tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021 yil 27 avgustdagi 03-17-02/5726-son ma'lumotnomasi). Taklifdan foydalanish xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyati samaradorligining aniq ko'rsatkichlariga har bir rasmiylashtirilgan jarayonning ta'sirini tahlil qilish va kuzatish, sifatni boshqarish tizimiga joriy etishdan iqtisodiy samarani hisoblash imkonini bergan;

korxonada sifatni boshqarish tizimi natijadorligini baholash yondashuvi xizmatlar bozorida iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar sifatini raqobatbardoshlikka bog'liqligini aniqlash asosida takomillashtirish taklifidan "Asterisk Samarkand" ("Gala Osiyo" mehmonxonasi) hamda "Aziya Plaza" ("Osiyo Plaza" mehmonxonasi) ma'suliyati cheklangan jamiyatlar amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021 yil 27 avgustdagi 03-17-02/5726-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish mehmonxona xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari va ularning

xizmatlar bozorida raqobatbardoshligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 4 ta va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'yekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish sohasida sifat va samaradorlikni baholashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasida sifat va samaradorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va tavsifini ifodalovchi nazariy qarashlarni ilmiy jihatdan tahlil etish asosida “xizmatlar sifati” va “samaradorlik” kategoriyalarining mazmuni bo'yicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan hamda sohada xizmatlar sifati va samaradorligini baholash usullari tasniflangan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida sifatni boshqarishning zamonaviy modellari tadqiq etilgan.

Iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyat olib borayotgan korxonalarining muayyan xususiyatlariga asoslangan holda, xizmat ko'rsatish korxonalari ham o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarga ega. Shunga ko'ra, muayyan omillar tanlanishini ifodalovchi mazkur soha rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Xizmatlar – bu moddiy tavsifga ega bo'lmagan, saqlab bo'lmaydigan hamda ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayoni bir vaqtda amalga oshadigan harakatlar natijasida aniq joyda va aniq vaqtda iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan va qiymat yaratadigan iqtisodiy faoliyat ko'rinishidir.

Sifat tushunchasi ham tovarlar va xizmatlarga, ham tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayoniga tegishlidir. Har qanday mahsulot yoki xizmat iste'molchilarning muayyan talablariga muvofiq kelishi zarur. Xizmatlar sifati – bu iste'molchining belgilangan yoki mo'ljallangan ehtiyojlarini qondirishni aniqlovchi xizmatlarning jami tavsifidir. Xizmatlar sifati ko'pincha iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatiga bog'liq.

Shuning uchun hayotiylik davrlari tizimida qarab chiqib, uning sifatini baholashning mavjud ikki uslubi haqida gapirish mumkin: bajaruvchi nuqtai nazaridan (ichki jarayonlarning jami sifati bo'yicha) va iste'molchi nuqtai nazaridan (xizmatlarni qondirilish darajasi sifatida). Samaradorlik - bu xizmatlarlar ko'rsatish korxonalarini xo'jalik faoliyatining u yoki bu sohasida yuqori natijaga erishish va mazkur natijaning birligiga qilingan sarflarni kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonning muayyan natijadorlikka erishishini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Xizmatlar sifatini baholash uning ommabopligi darajasi, xizmat sohasini korxonalar obro'si, ishonchlilik xavfsizlik, personal kompetensiyasi, kommunikatsiya darajasi, xushmuomalalik, xaridor bilan hamfikrlik, sezuvchanlik kabi parametrlarni o'z ichiga oladi. Xizmat sohasini servis korxonalarida xizmatlar sifatining xususiyatlari tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi funksional ko'rsatkichlar, xavfsizlik ko'rsatkichlari, ishonchlilik ko'rsatkichlari va xodimlarning kasbiy daraja ko'rsatkichlari guruhini shakllantirish asosida tasniflandi (2-rasm).



2-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlar sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar⁷

⁷Muallif ishlanmasi.

Sifatning yakka tartibdagi va kompleks ko'rsatkichlarining tashqi muhit bilan aloqasi bo'yicha turli guruhlariga birlashtirilishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar guruhini tahlil qilishda ular o'rtasidagi muayyan korrelyasiyani kuzatish mumkin.

Bugungi kunda iste'molchilarni talabini qondirishni o'lchash asosida xizmatlar sifatini baholash usullari yondashuvni o'lchashda foydalaniladigan belgilari bo'yicha ikki guruhga ajratish mumkin: iste'molchilar fikrini bilish va analitik tahlil natijasini baholash.

Iste'molchilar fikrini bilish shundan iboratki, respondentlarga xizmatlarning turli xil tavsifdagi ahamiyatini mustaqil baholash taklif etiladi. Bu usullarga xizmat ko'rsatish sifatini sub'yektiv baholash bilan bog'liq: xizmatlarning eng ahamiyatli xususiyatlari ro'yxatini aniqlash; xizmatlar tavsifining muhimligi darajasi bo'yicha reytingini tuzish; reyting usuli; punktlarni taqsimlash (Constant sum); Q-sort hamda juft munosabatlar usuli kabilar tegishlidir.

Xizmat ko'rsatish sohasida sarf-xarajatlar bilan natijani taqqoslashga asoslangan innovatsiyalar samaradorligini baholash usuli integral iqtisodiy samaradorlik, innovatsion faoliyat rentabelligi, innovatsiyaga qilingan xarajatlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida takomillashtirildi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning muhim omili sifatida xizmat ko'rsatish jarayoniga innovatsiya va innovatsion texnologiyalarni qo'llash, soha rivojlanishining raqobatbardoshligini ta'minlash, xizmatlarning ilg'or dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha innovatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni oshirishda eng samarali innovatsiyalarni tanlash, bir tomondan, uni joriy qilishda natijalarning oshishini, ikkinchi tomondan, mazkur holatda innovatsiyalar uchun boshqa imkoniyatlarni joriy qilish natijasida kutilayotgan samara bilan xarajatni o'zaro taqqoslashni zarurat etadi. Ko'pincha integral iqtisodiy samaradorlikni hisoblash uchun uchta guruhdan iborat, ya'ni integral samara ko'rsatkichi, innovatsiya rentabelligi ko'rsatkichi, xarajatlarni qoplash davri ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Har bir guruh bo'yicha muayyan ko'rsatkichni hisoblash variantini keltirib o'tamiz:

1. Integral samarani baholash (I) diskontlash asosida ma'lum bir davrdagi natijalar va xarajatlar farqining miqdorini o'zida ifoda etadi. Mazkur mezon bo'yicha hisob-kitoblar quyidagi shaklda keltiriladi:

$$I = \sum_{t=0}^T (N_t - Z_t) a_t, \quad (1)$$

bu yerda: T – hisobot yili; N_t – t - yildagi natija; Z_t - t – yilda innovatsiyaga qilingan sarflar; a_t – diskontlash koeffitsiyenti.

2. Innovatsiya rentabelligi (P_i) muayyan davr uchun olingan daromadlarni xarajatlarga nisbatini ifodalaydi. Rentabellik quyidagicha aniqlanadi:

$$P_i = \sum_{t=0}^T Q_t a_t / \sum_{t=0}^T B_t a_t, \quad (2)$$

bu yerda: Q_t – t - davrdagi olingan daromad; B_t – t - davrda innovatsiyaga kiritilgan investisiya hajmi.

Xizmat ko'rsatish soha korxonalarida innovatsiya rentabelligi integral samaraga bevosita bog'liq. Agarda integral samara ijobiy natijaga ega bo'lsa, innovatsiya rentabelligi 1,0 koeffitsiyentdan ko'p bo'ladi yoki aksincha. Agarda innovatsiya rentabelligi 1,0 koeffitsiyentdan kichik bo'lsa, u holda innovatsiya loyihasi xizmat ko'rsatish jarayonida realizasiya (kiritilmaydi) qilinmaydi.

Belgilangan davrga innovatsiyalar va investisiyalardan olinadigan daromad miqdori va unga zarur bo'lgan investisiyalar hajmi quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$Q = \sum_{t=0}^T \frac{Q_t}{(1+a)^t}, \quad B = \sum_{t=0}^T \frac{B_t}{(1+a)^t}, \quad (3), (4)$$

3. Xizmat sohasi korxonalarini xarajatlarini qoplash davri (t) innovatsiyalar bo'yicha samaradorlikni baholashda zaruriy darajada axborot ko'rinishidagi ko'rsatkich hisoblanadi.

Demak, xarajatlarni qoplash muddati qancha uzoq bo'lsa, xavf-xatar ham shuncha yuqori bo'ladi. Belgilangan qisqa davrda kiritilgan innovatsiyalar o'zini qoplaydi, muayyan davrda ilgari innovatsiyalar natijasini qoplash imkoniyatiga ega «qoplovchi innovatsiyalar», deb nomlangan innovatsiyalar yuzaga kelishi mumkin. Ular qisqa muddat ichida innovatsiyaga bo'yicha qilingan xarajatlarni qoplaydi. Aynan bu davrda bozor, narx, ilmiy texnik va tajriba konstruktorlik va texnologiyalar o'zgarishi mumkin. Ilmiy texnik va tajriba konstruktorlik hamda yangi texnologiyalar ulushi yuqori bo'lgan zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarida ushbu natija muhim aqlik bilan e'tiborga olinadi.

Xizmat ko'rsatish soha korxonasining faoliyatida xavf-xatar yuqori bo'lsa, u holda xarajatlarni qoplash davri innovatsiyalarga nisbatan qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Bunda xavf-xatar qisqa muddat ichida o'zini qoplashni kompensasiya qilishi kerak. Ya'ni, tezda loyihani realizasiya qilish zarur. Odatda, mazkur loyihaning fan sig'imkorligi past bo'ladi, lekin bu texnologik innovatsiyani imkonsiz ekanligini bildirmaydi. O'zini o'zi qoplash davri (T) o'rtacha yillik pul daromadlari hajmini diskontlashda innovatsiyalarda boshlang'ich investisiyalar nisbatini ifodalaydi.

$$T = \frac{B}{Q}, \quad (5)$$

bu yerda: B – innovatsiyalarga dastlabki investisiyalar; Q – o'rta yillik pul daromadlarini diskontlash.

Bu ko'rsatkich to'liqsiz o'lchamda innovatsiya samaradorligini baholash uchun muvofiq keladi. Bu shu bilan ifodalanadiki, innovatsiyalarni yaratish va joriy etishda keng ko'lamdagi agentlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Innovatsiyalarni yaratishda investorlar, tajriba-konstruktorlik, ilmiy-tadqiqot, innovatsion mahsulotlarni tayyorlovchilar, loyiha tashkilotlari va uni iste'mol qiluvchi subyektlar jalb qilinadi.

Shu bilan birga, texnologik innovatsiyalarni realizatsiya qilish uning o'xshashi bilan taqqoslaganda ijobiy natijalarga erishishi pirovard maqsad bo'lib hisoblanadi. Yangi texnologik jarayonlar, mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish, mehnat va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) ni joriy etishdan yillik iqtisodiy samara (S_y) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$C_{\dot{u}} = (\partial_{n1} - \partial_{n2}) * M_2, \quad (6)$$

bu yerda: d_{n1} va d_{n2} – bazis va hisobot davrida texnologiya ko'magida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat) birligiga sarflangan xarajatlar ulushi;

M_2 – hisobot davrida natural birlikda yangi texnologiyalar asosida mahsulot (xizmat) ishlab chiqarishning yillik miqdori.

Sifat menejmentiga tizimli yondashuv firmalarni iste'molchilar talabini tahlil qilish, mahsulot, ish va xizmatlar yaratiladigan jarayonlarni belgilab olish, shuningdek ushbu jarayonlarni boshqara olish darajasiga keltirish talab etiladi. Shunga ko'ra, korxonalar rahbariyatining mas'uliyatini oshirish, resurslarni boshqarish, sifat menejmenti tizimini davriy ravishda tahlil qilib borish hamda rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishning jarayonli yondashuviga asoslangan sifat menejmenti tizimi modeli ishlab chiqildi.

Mehmonxona xo'jaliklarida sifatni baholash jarayoni mehmonxonalarda joylashtirish vositalari va mehmonxona nomerlarining toifasi bo'yicha muvofiqligini baholash, joylashtirish vositalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning natijaviyligi hamda nomerlarning qo'shimcha talablarga muvofiqligini baholash yo'nalishlari bo'yicha tasnifi ishlab chiqildi.

Dissertatsiya ishining **“Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasida sifat va samaradorlikni oshirish holati va tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish tendentsiyalari va omillari, mehmonxona xo'jaliklari faoliyatida mavsumiylikni tahlil qilish va baholash usullari hamda mehmonxona xo'jaliklarida sifat va samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili amalga oshirilgan.

Iqtisodiyotning transformasiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishi an'anaviy xizmatlarni takomillashtirish hamda zamonaviy va raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi turdagi xizmatlarning diversifikatsiyalanishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, mazkur sohaning rivojlanishi innovatsion omillar ta'siri ostida optimal va xizmatlar bozori kon'yunkturasi bo'yicha moslashuvchan bo'lsagina, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va samaradorligi shunchalik oshib boradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Samarqand viloyatida 2021 yilda jami xizmatlar hajmi 18259,0 mlrd. so'mni tashkil etgan holda, ushbu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan

2,2 marta o‘sgan. Xizmatlar turlari bo‘yicha eng yuqori o‘shish so‘r‘atlari me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasida – 5,7 marta, moliyaviy xizmatlar bo‘yicha – 4,0 marta, ta‘lim xizmatlari bo‘yicha – 2,7 marta, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo‘yicha – 2,8 marta, sog‘liqni saqlash xizmatlarida – 2,1 marta oshgan. Shuningdek, tahlil etilayotgan yillarda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar – 192,0 %, transport xizmatlari – 184,6 %, ijara va prokat xizmatlari – 181,8 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 155,8 %ga oshgan (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi va tarmoqlarida xizmatlar turlari bo‘yicha hajmining yillik o‘zgarishi⁸ (mlrd. so‘m)

Sohalar va tarmoqlar	Yillar boshida					2021 yil 2017 yilga nisbatan o‘shish, %
	2017	2018	2019	2020	2021	
Jami xizmatlar Shu jumladan:	8343,2	10043,5	12786,8	14086,1	18259,0	2,2 marta
Aloqa va axborot-lashtirish	536,5	620,3	633,7	716,9	835,8	155,8
Moliya xizmatlari	650,9	997,7	1712,7	2123,6	2613,2	4,0 marta
Transport xizmatlari	2494,7	2764,0	3152,9	3371,1	4604,7	184,6
Shu jumladan: avto-transport xizmatlari	2379,7	2522,1	2889,3	3252,1	4335,5	182,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	225,9	319,5	461,4	400,0	629,6	2,8 marta
Savdo xizmatlari	2493,9	2977,6	3648,9	4205,2	5175,9	2,1 marta
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	243,1	316,1	329,4	321,7	466,8	192,0
Ta‘lim xizmatlari	368,7	432,9	556,8	694,2	1003,6	2,7 marta
Sog‘liqni saqlash xizmatlari	119,4	145,5	193,8	260,7	341,2	2,8 marta
Ijara va prokat xizmatlari	301,7	337,2	404,6	423,6	548,4	181,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash	268,0	286,3	349,5	367,7	538,3	2,0 marta
Shaxsiy xizmatlar	344,8	415,0	522,5	545,0	761,3	2,2 marta
Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	55,4	109,2	313,8	321,1	318,3	5,7 marta
Boshqa turdagi xizmatlar	240,2	322,2	506,8	335,3	421,9	175,6

Mamlakatimizda barcha iqtisodiy faoliyat turlari singari xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarida ham tarkibiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, 2021 yilda viloyatda 18259,0 mlrd.so‘mlik xizmatlar ishlab chiqarilib (ko‘rsatilib), o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 119,0 %ni tashkil qildi.

Viloyatning shahar va tumanlari kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlarga e‘tiborni qaratsak, 2019 yilda o‘tgan yilga nisbatan Samarqand shahri (115,4 %), Urgut (117,9 %) va Kattaqurg‘on (113,6 %) tumanlarida yuqori o‘shish sur‘atiga ega bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021 yilda aksariyat hududlarda o‘tgan yilga nisbatan yuqoriroq

⁸Muallif tomonidan Samarqand viloyati Davlat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

sur'atda o'sgan. Samarqand shahrining viloyat bo'yicha umumiy xizmatlardagi ulushi 2019 yilda 40,3 %ni, 2021 yilda 42,0 %ni tashkil etgan (2-jadval).

2-jadval

Samarqand viloyatida hududlar bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari⁹


Hududlar		2019 yil, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da	2021 yil, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
1	Samarqand	5150,7	115,4	40,3	7675,5	122,8	42,0
2	Kattaqo'rg'on tumanlar:	318,6	106,8	2,5	426,6	117,2	2,0
3	Bulung'ur	344,0	102,2	2,7	496,1	118,3	3,0
4	Jomboy	576,5	106,5	4,5	801,8	110,3	4,0
5	Ishtixon	499,8	104,7	3,9	659,5	112,7	4,0
6	Kattaqurg'on	498,8	113,6	3,9	731,4	110,6	4,0
7	Narpay	452,6	104,6	3,5	614,9	114,0	3,0
8	Nurobod	272,1	105,4	2,1	370,1	117,4	2,0
9	Oqdaryo	418,4	100,5	3,3	641,5	116,2	4,0
10	Payariq	458,6	101,4	3,6	654,7	114,7	4,0
11	Pastdarg'om	902,3	105,6	7,1	1143,2	116,0	6,0
12	Paxtachi	263,9	107,9	2,1	411,6	114,3	2,0
13	Samarqand	862,9	101,8	6,7	1225,5	122,4	7,0
14	Tayloq	570,2	101,2	4,5	804,3	116,9	4,0
15	Urgut	924,9	117,9	7,2	1233,8	122,5	7,0
16	Qo'shrabot	272,5	106,7	2,1	368,5	114,5	2,0
	Jami	12786,8	112,4	100,0	18259,0	119,0	100,0

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Samarqand viloyatida xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganish va sifatli xizmatlar ko'rsatish da quyidagi yo'nalishlarda faoliyatni amalga oshirish muhim hisoblanadi: yangi turdagi xizmatlarga bo'lgan talab va taklif jarayonini tadqiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy qo'llanma va ko'rsatmalarni ishlab chiqish; xizmatlarga, xususan, turistik xizmatlarga talabni oshirish uchun hududiy darajada xizmatlar kon'yukturasi tahlili uchun zaruriy axborotlarga ega bo'lish va tegishli hisobotlar, bukletlar hamda ma'ruzalar tayyorlash; ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash maqsadida anketa so'rovnomalari va sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish; xizmatlar sohasidagi mavjud muammolarni yechish maqsadida turli xil ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish va yarmarkalar, ko'rgazmalarda qatnashish.

Xizmat ko'rsatish sohasining muhim tarmoqlaridan biri turizm iqtisodiyotini rivojlantirishda mehmonxona xo'jaligi faoliyatini samarali tashkil etish, turizm mavsumiylik bevosita bog'liq. Mavsumiylik u yoki bu hodisaning yil davomidagi barqaror qonuniyati bo'lib, u yoki bu ko'rsatkichning tashrif buyuruvchi turistlarning yil davomida ko'payishi yoki kamayishi tushuniladi.

⁹Manba: Samarqand viloyati Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

Shuningdek, quyidagi 3-rasmda 2020 yil 1-yanvar holatiga yashash xizmatlarining bandligi darajasi bo'yicha dinamikasi keltirilgan. Yashash xizmatlarining yuqori bandligi darajasi mehmonxonalarining, past bandligi darajasi esa xostellar hissasiga to'g'ri keladi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida yashash xizmatlarining bandligi darajasi¹⁰(%)

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalar va tashkilotlarining mutaxasislari mehnat jarayonining barcha sir-atvorlari bo'yicha yuqori bilim, kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari zarur. Natijada xizmat ko'rsatish sohasida resurslardan samarali foydalanish asosida xizmat ko'rsatish sifatini va samaradorligini oshirishga olib keladi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat ko'rsatkichlari ko'pincha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish usullariga bog'liqdir. Xizmat ko'rsatish usuli korxonalarining turi va ixtisosligiga aloqadordir. Sifat va samaradorlikni oshirishga ko'proq xizmat ko'rsatish sharoitlari bog'liq bo'lib, ushbu jarayon iste'molchilarning talab va istaklariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining faoliyati samaradorligi ularning tashkiliy-boshqaruv va iqtisodiy jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishiga bevosita bog'liq. Xizmat ko'rsatish korxonalarining tashkiliy-boshqaruv faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi: korxonalar faoliyatini rejalashtirish, xizmatlar bozorida talab va taklif holati yoki xizmatlar assortimentini o'zgarishiga mos rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish; korxonada xizmatlarni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sarf-xarajatlarini baholash; xizmatlar assortimenti va sifat darajasini hisobga olgan holda texnologik jarayonlar va texnik vositalar tarkibini modernizatsiyalash; iste'molchilar fikrini aniqlash uchun ijtimoiy-psixologik qobiliyatga ega mutaxasislarni tanlash va jalb etish; xizmat ko'rsatish

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

personalining kasbiy ko'nikmalari va malaka darajasini oshirish; mehnat unumdorligini oshirish hisobiga intensiv rivojlanishni ta'minlash; raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoni va xizmat ko'rsatish faoliyatga joriy etish; xizmat ko'rsatish xarajatlari samaradorligini baholash; xizmat ko'rsatish natijalarini oshirish.

3-jadval

“Tumaris” mehmonxonasida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar holati (2017-2020 yillar boshiga)¹¹

T.r	Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2020 yilni 2017 yilga nisbatan o'sishi, (%)
1.	Yaratilgan sof mahsulot jami, mln. so'm	1018,9	1637,7	2684,5	3738,1	3,7
2.	Mehnat unumdorligi, mln. so'm	67,9	86,2	141,3	186,9	2,7
3.	Jami band bo'lganlar soni, kishi	19	23	23	25	131,6
4.	Shundan, ishchilar soni, kishi	15	19	19	20	133,3
5.	Sof foyda, mln. so'm	270,4	888,5	1464,4	1842,9	6,8 marta
6.	Jami personalning mehnatga haq to'lash fondi, mln. so'm	120,6	154,5	206,7	320,4	2,7 marta
7.	Shundan: rahbarlar ish haqi fondi, mln. so'm	20,3	30,3	36,6	54,8	2,7 marta
8.	Ishchi xodimlar ish haqi fondi, mln. so'm	100,28	124,2	170,1	265,6	2,6 marta
10.	Mahsulot sotish rentabelligi, %	49,5	135,4	158,0	94,4	-
